

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING “BOBURNOMA”  
ASARIDAGI ILMIY VA BUNYODKORLIK QARASHLARI VA UNING  
O’ZIGA XOS JIHATLARI ORQALI YOSHLARDA VATANPARVARLIK,  
G’URUR, IFTIXOR TUYG’ULARINI SHAKLLANTIRISH**

**Tayirov Mansur Anorboyevich**  
*Jizzax davlat pedagogika instituti*  
*Umumiy pedagogika kafedrası*  
*o’qituvchisi,*

**Botir Abdalimov**  
*Mirzo Ulug’bek nomidagi O’zbekiston*  
*Milliy Universitetining Jizzax filiali*  
*talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma” asaridagi ilmiy qarashlari, tarix, geografiya, biologiya sohasida qilgan ishlari va qo’lyozmalari, hamda Boburning bunyodkorlik g’oyalari, ularning yosh avlod uchun nechog’li ahamiyatli ekanligi yoritilgan.

**Kalit so’zlar:** Zahiriddin Muhammad Bobur, Boburnoma, bunyodkorlik, shaxs kamoli, ilm-fan, taraqqiyot, san’at, marifat, fan sohalari, mardlik, jasurlik, vatanparvarlik, g’urur, iftixor, boshqaruvchanlik,

Biz mamlakatimiz xalqlarining, shu jumladan, O’rta Osiyo va umuman Sharq xalqlarining do’stlik va hamkorlikda bir-birlariga ta’sir etib, uzoq yillar davomida yaratgan behisob moddiy va ma’naviy boyliklari bilan faxrlanamiz. Bu boyliklarsiz umumbashariyat madaniyatni, uning tarixi va taraqqiyotini tasavvur qilish mushkul va ko’p hollarda mumkin emas. Shu xususida mulohaza yuritar ekanmiz, O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yilning 20 yanvarda quyidagi fikrlarini e’tirof etmasdan ilojimiz yo’q.

“Oliy Majlis Senatining yangi tarkibdagi ilk majlisida so’zga chiqqan Prezident Shavkat Mirziyoyev milliy tarixni anglashning ahamiyati haqida to’xtalib o’tdi.

Yaqinda Xavfsizlik kengashi yig’ilishida Zahiriddin Muhammad Bobur bobomiz haqida gapirdim. Bobur 12 ming askar bilan 100 ming askarni yenggan.

O'sha paytda shunday qilish mumkinmidi? Yo'q. Bobomizga nima yordam berdi? Vatanparvarlik, g'urur, iftixor, aql-zakovat.

Men Boburni bugun ko'p gapiryapman. Quyi palata yig'ilishida ham gapirdim. Umuman, shu kunlarda men tariximizni ko'p o'qishga harakat qilyapman.

Ming afsuski, bizga sovet davrida Pushkin, Lermontovning bobolari xoki qayerda to'kilganini o'qitgan xolos. Alisher Navoiy yoki Boburlarni o'qitmagan. Rus tilida o'qigan odamlar Pushkin, Lermontovni o'qigan. Biz hech kimga Boburni o'qitmaganmiz. Uning ekologiya haqida yozganlarini o'qisangiz, hozirgi davrda yashaydi, deb o'ylaysiz.”<sup>1</sup>

Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma» asarini mutolaa qilar ekanmiz, u zamonasining yuksak ijodkori, yangilikka intiluvchi shaxs sifatida qaerda bo'lmasin bunyodkorlik bilan shug'ullanganiga guvoh bo'lamiz.

Ayniqsa, Afg'oniston va Hindistonda amalga oshirgan ishlarining adog'i yo'q. Bobur bu o'lkalarning madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan.

Avvalo, davlatchilik va ijtimoiy boshqaruvni qaror toptirishga, obodonchilik ishlarini avj oldirishga, harbiy tuzilmani isloh etish, bu sohaga ham yangiliklar kiritishga intilgan. O'zining qisqa, 47 yillik umri hisobsiz jangu jadallarda o'tgan Bobur davr sultoni, shoh vazifasini ado etib, yana biz avlodlarga bebaho «Aruz risolasi»dek ilmiy asar, she'riy devon, din aqidalariga oid qo'lyozma qoldirgan.

«Boburnoma»dagi ko'plab misollar sivilizatsiyaga o'ta moyil bunyodkor inson — faqat shoh Boburni emas, tom ma'nodagi muhandis Boburni, yaratilayotgan inshootining chinakam jonkuyarini ko'z oldimizda gavdalantiradi. Quyidagi parchadan yaratuvchilik ishidan mamnun, har bir qo'yilayotgan g'isht, toshdan hayot zavqini tuygan kishining holatini sezamiz: «Tonglasig'a buyurulg'on yerlarni yurub sayr qildim. Yakpora toshda buyurulg'on kaylador havzning yuzini bir martaba tamom ko'tarmaydurlar edi, buyuruldikim,

---

<sup>1</sup> Oliy Majlis Senatining yangi tarkibdagi ilk majlisida so'zga chiqqan prezident Shavkat Mirziyoyev milliy tarixni anglashning ahamiyati haqida to'xtalib o'tdi. 120.01.2020 y.

sangtaroshlar ko'prak kelib, bir martaba, havzning tubini durustroq olsunlarkim, suv quyib, atrofini tarozu qilsa bo'lg'ay. Kech namozi digar havzning bir martaba yuzini tamom oldilar. Buyurdimkim suv to'ldirdilar. Atrofini suv bila tarozu qilib, hamvor qilmoqqa mashg'ul bo'ldilar. Bu navbat yana bir obxona buyurdimkim, yerini yakpora toshdin tarosh qilg'aylar, ichidagi kichik havzni ham yakpora toshdin qozg'oylar».<sup>2</sup>

“Boburnoma” – adabiy va tarixiy ahamiyatga molik asar. Unda o'z davridagi ko'plab kishilarning turli vaziyatlardagi kechinmalari, Osiyoning ko'plab tog'lari, daryolari, o'rmon va cho'llari, iqlimi, aholisi, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy ahvoli haqidagi ma'lumotlar jamlangan.

Asarda tarixning Bobur yashab o'tgan davri voqealari ifodalangan. Bu voqealar Andijon, Samarqand, Xo'jand, Hirotdan boshlab Kobul va Agragacha bo'lgan qamrovga ega. Ya'ni unda O'rta Osiyodan boshlab Hindistongacha bo'lgan masofadagi deyarli 50 yillik voqealar haqqoniy ifoda va bahosini topgan.

Zahiriddin Muhammad Bobur buyuk davlat arbobi, shoir bo'lib qolmasdan, tabiatshunos olim hamdir.

Bobur tomonidan yozilgan «Boburnoma»da Markaziv Osiyo, Afg'o niston, Hindiston kabi mamlakatlarning tarixi, geografiyasi, xalqlarning turmush kechirish tarzi, madaniyati bilan birga, o'simlik va hayvonot olami to'g'risida qiziqarli ma'lumot berilgan.

U o'zi ko'rgan, kuzatganlariga asoslangan holda hayvon va o'simliklarning tuzilishi, hayot tarzi, ularning o'zaro o'xshashligi yoki farqlari haqida ma'lumotlarni bayon etgan. Xususan, Amerikalik tadqiqotchi Berk Boburga bergan qisqa va lo'nda tavsiflarida ulug' siymoning hayot yo'li, davlatchilik tarixidagi xizmatlari va shaxsiyatidagi eng muhim jihatlarni muxtasar tarzda yoritishga erishgan. Muallif Boburning hukmronlik siyosati xususida shunday yozadi: “Boburshohning fikricha, fotihlik va hukmdorlik ishida yuz ming usul

---

<sup>2</sup> Hasan Qudratullayev filologiya fanlari doktori, professor “BOBUR VA SHARQ TAMADDUNI” mavzusidagi maqolasi(1-2 bet) «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasining 2005 yil 27-soni

qo'llasa ham haq va zarur hisoblanadi. Biroq bosib olingan yerlarni, ayniqsa, bu o'lkalarni o'z saltanati tarkibiga kiritish rejalashtirilgan bo'lsa-da, u g'olib askarlar mag'lublar mulkini talon-taroj qilishiga mutlaqo yo'l qoymasdi". "Boburnoma" haqidagi fikrlar ham diqqatga sazovor: "Men bor haqiqatni yozdim", deydi muallif va haqiqatan ham u o'zining kamchiliklari, omadsizlikka olib kelgan noto'g'ri xatti-harakatlarini o'quvchidan yashirmaydi. Bobur hayoti va ijodi Fransiyada ham keng o'rganilgan bo'lib, Fransiya ilm ahliga Zahiriddin Muhammad Bobur va "Boburnoma" haqida dastavval ma'lumot bergan fransuz sharqshunosi Bartoleme D'erbelo (1621-1695) hisoblanadi. D'erbelo o'zining "Sharq kutubxonasi" (La Biblioteque orientale. Paris, 1967) qomusidagi "Bobur yoki Bobar" nomli maqolasida Boburning hayoti, uning davlati va sarkardalik mahorati, adabiyot va san'atga qiziquvchi ilg'or fikrli kishi bo'lgani haqida ma'lumot beradi.

XIX asrga kelib Yevropa, xususan, fransuz sharqshunosligida Bobur merosini o'rganish, uning asarlarini tarjima qilish borasida yangi davr boshlandi. Ayni shu yillarda Boburning ulkan asari "Boburnoma"ni fransuz tiliga tarjima qilish, uning matn xususiyatlarini o'rganish, siyosiy-tarixiy ahamiyatini baholashda fransuz olimlari e'tiborga molik tadqiqotlarni yaratishdi.

«Boburnoma» asarida Bobur o'zi ko'rgan kechirganlari, yurgan joylari tabiati, boyligi, urfodati, hayvonoti, o'simliklarini tasvirlagan. Asarda yer, suv, havoga tegishli xalq so'zlari ko'plab uchraydi.

Bobur o'z asarida joyning geografik o'rni, qaysi iqlimga mansubligi, o'simliklari, hayvonlari haqida bayon etgan va O'rta Osiyoda qadim vaqtlardan buyon qovun, bug'doy, o'rik, nok va mevalarning bir necha navlari borligi haqida ta'kidlagan.

Asarda Bobur borgan joylarining tabiati va o'ziga xos xususiyatlarini Andijon va Samarqand bilan taqqoslagan, hamda O'rta Osiyo, Afg'oniston, Xuroson va Hindistondagi hayvonot dunyosi haqida batafsil bayon etib bergan.

Bobur hayvonlarni to'rt quruhga ajratgan: quruqlik hayvonlari, parrandalar, suv yaqinida yashaydigan hayvonlar va suv hayvonlariga ajratgan. Bu

ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, Boburning biologiya sohasida ham o'ziga xos qarashlari bo'lgan. U bu sohada kuzatish, taqqoslash metodidan foydalanganligini aytishim mumkin.<sup>3</sup>

“Boburnoma”da adabiyot va san’at ahli, ilm-ma’rifat kishilariga ham munosib o‘rin berilgan. Unda Abdurahmon Jomiy, Shayxim Suhayliy, Husayn Ali Tufayliy, Sayfiy Buxoriy, Mir Husayn Muammoiy, Mullo Muhammad Badaxshiy, Yusuf Badiiy, Ohiy, Muhammad Solih, Hiloliy, Ahliy, Alisher Navoiy, Binoiy va boshqa so‘z ustalari haqida maroqli hikoyalar mavjud.

“Boburnoma”dagi voqealar bayoni aniq, ixcham va lo‘nda, ta’sirchan, eng muhimi, hayotiy haqiqatga mos va muvofiqligi bilan e’tiborlidir. Muallif voqealar bayonida tabiat tasviriga, ayrim joylar tavsifiga, alohida kishilarning ta’riflariga jiddiy ahamiyat beradi.

#### **ADABIYOTLAR**

1. Hasan Qudratullayev filologiya fanlari doktori, professor “BOBUR VA SHARQ TAMADDUNI” mavzusidagi maqolasi(1-2 bet) «O‘zbekiston adabiyoti va san’ati» gazetasining 2005 yil 27-soni
2. Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma” Toshkent-1960
3. «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati Toshkent – 2017 Biologiya 2017 (160-b)M. Ziyamuhamedova, Sh. Xurramova, S. Allayeva, Sh. Xoldorova
4. <https://kun.uz/uz/news/2020/01/20/bizga-navoiy-yoki-boburni-oqitishmagan-shavkat-mirziyoyev-milliy-tarix-haqida-gapirdi>
5. <https://fayllar.org/sharq-olimlarining-tabiat-uning-inson-hayotidagi-orni-haqidagi.html>.
6. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 2 iyunda Andijon viloyatiga tashrifida «Bog'i Bobur» istirohat bog'i bilan tanishish jarayondagi nutqidan.
7. O.Hasanboyeva va boshqalar “Pedagogika tarixi” Toshkent – 2004. 130-bet

---

<sup>3</sup> M. Ziyamuhamedova, Sh. Xurramova, S. Allayeva, Sh. Xoldorova Bosh tahririyati Toshkent – 2017 Biologiya 2017 16-bet.

8. G.Niyozov, . hmedova “Pedagogika tarixidan seminar mashg’ulotlari”  
Toshkent – 2011. 65 – bet.
- 9.Jumanazarova, Dilnoza Umurzaqovna and Soyibnazarova, Muqaddas Norpulatovna (2022) "SOME CONSIDERATIONS ON THE CLASSIFICATION OF SPIRITUAL AND MORAL VIRTUES, " Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal: Vol. 2022 : Iss. 1 , Article 13.
- 10.Munarova, R. N. O. S., & Soibnazarova, M. N. L. (2022). ONTOGENEZNING TURLI DAVRLARIDAGI SHAXS IQTIDORINI NAMOYON BO ‘LISH JIHATLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(2), 682-688.
- 11.Norpulatovna, S. M. (2021, January). THE PROBLEMS OF HUMANITY IN PHILOSOPHICAL SCIENTIST. In Euro-Asia Conferences (Vol. 1, No. 1, pp. 478-479).
- 13.Norpulatovna, S. M. (2021, January). THE PROBLEMS OF HUMANITY IN PHILOSOPHICAL SCIENTIST. In Euro-Asia Conferences (Vol. 1, No. 1, pp. 478-479).
- 12.Soibnazarova, M. (2022). БУЮК МАЪРИФАТПАРВАР М.БЕҲБУДИЙНИНГ ПЕДАГОГИК ФИКРЛАРИНИНГ ТАЪЛИМ ВА ТАРБИЯ ЖАРАЁНИДАГИ АҲАМИЯТИ. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 2(6). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/5572>
- 13.Soibnazarova, M. (2022). ЁШ АВЛОДНИНГ МАЪНАВИЙ-АХЛОҚИЙ ТАРБИЯСИДА МУТАФАККИРЛАРНИНГ ФИКРЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 2(6). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/5573>
- 14.Soibnazarova, M. (2022). АЛЛОМАЛАР АСАРЛАРИДА ИНСОНПАРВАРЛИК МУАММОЛАРИ. Журнал Педагогика и психологии в

- современном образовании, 2(6). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/5574>
- 15.Sanakulova, Z. A., & Soibnazarova, M. N. (2017). Modular training as a pedagogical technology. Pedagogicheskoe masterstvo: X Mezhdunarodnaya nauchnaya konferentsiya, Moskva, iyun'2017.
- 16.Санакулова, З. А., & Соибназарова, М. Н. (2017). Модульное обучение как педагогическая технология. In Педагогическое мастерство (pp. 20-22).
- 17.Соибназарова, М. Н., & Санакулова, З. А. (2016). Некоторые психологические проблемы общения в подростковом возрасте. Молодой ученый, (5), 737-739.
- 18.Санакулова, З. А., Соибназарова, М. Н., Бойтураева, Н. И., & Юлдашев, Ш. Э. (2016). Психологические условия формирования навыков самостоятельного мышления у учащихся. Молодой ученый, (8), 1022-1024.
- 19.Isoqulov, M. (2022). ЮҚОРИ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИНИ ЖАҲОЛАТГА ҚАРШИ МАЪРИФАТ РУҲИДА ТАРБИЯЛАШДА ВЕРТУАЛ СТЕНДЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 2(3). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/5620>
- 20.Isoqulov, M. (2022). ЮҚОРИ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИ ОНГИДА ЖАҲОЛАТГА ҚАРШИ КУРАША ОЛИШ ТАФАКУРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ОИЛА ВА МАКТАБ ҲАМКОРЛИГИ. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 1(4). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/4746>
- 21.Mamadoli Isoqulov, ФОРМИРОВАНИЕ МЫШЛЕНИЯ МОЛОДЁЖИ В ПРОЦЕССЕ ОБРАЗОВАНИЯ – ВОСПИТАНИЯ , Журнал Педагогика и психологии в современном образовании: № 1 (2021): Zamonaviy ta'limda pedagogika va psixologiya fanlari
- 22.Mamadoli Isoqulov, ТАЪЛИМ – ТАРБИЯ ЖАРАЁНЛАРИДА ЁШЛАР ТАФАККУРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ , Журнал Педагогика и психологии в

современном образовании: № 2 (2021): Журнал педагогики и психологии в современном образовании

23.Mamadoli Isoqulov, ФОРМИРОВАНИЕ МЫШЛЕНИЯ МОЛОДЁЖИ В ПРОЦЕССЕ ОБРАЗОВАНИЯ – ВОСПИТАНИЯ , Журнал Педагогики и психологии в современном образовании: № 3 (2021): Zamonaviy ta'limda Pedagogika va psixologiya fanlari

24.Isoqulov, M. (2021). ТАЪЛИМ – ТАРБИЯ ЖАРАЁНЛАРИДА ЁШЛАР ТАФАККУРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ. Zamonaviy ta'limda Pedagogika Va Psixologiya Fanlari, (2). Retrieved from <https://art.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/3018>

25.Isoqulov, M. (2021). ФОРМИРОВАНИЕ МЫШЛЕНИЯ МОЛОДЁЖИ В ПРОЦЕССЕ ОБРАЗОВАНИЯ – ВОСПИТАНИЯ . Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (1). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1400>